



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O‘ZBEKISTONDA YOG‘OCH O‘YMAKORLIGI AN‘ANALARI: XOM-ASHYO TANLASH VA NAQSH TIZIMINING ETNOLOGIK TAHLILI

Xudaybergenov Hayitboy Satimovich
Urganch davlat tibbiyot instituti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston xalq amaliy san‘atining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan yog‘och o‘ymakorligi san‘ati etnologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Unda yog‘och tayyorlash, xom ashyoni tanlashda ustalar tajribasi, daraxt turlarining tabiiy xususiyatlari hamda ulardan amaliy foydalanish usullari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yog‘och o‘ymakorligi, xalq amaliy san‘ati, an‘anaviy hunarmandchilik, yog‘och turlari, naqsh kompozitsiyasi, islimi, zanjira, turunj, etnologik tahlil, ustoz-shogird an‘anasi.

ТРАДИЦИИ РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ В УЗБЕКИСТАНЕ: ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЫБОРА СЫРЬЯ И СИСТЕМЫ ОРНАМЕНТОВ

Худайбергенов Хаитбой Сатимович
Ургенчский государственный медицинский институт, доцент (PhD)

Аннотация

В статье рассматриваются традиции художественной резьбы по дереву в Узбекистане как важный элемент народного прикладного искусства. Анализируются вопросы заготовки древесины, её отбора в зависимости от природных свойств, а также технологические приёмы обработки материала.

Ключевые слова: Резьба по дереву, народное прикладное искусство, традиционное ремесло, породы древесины, орнаментальная композиция, ислими, занжир, турунж, этнологический анализ, традиция «мастер–ученик».

WOOD CARVING TRADITIONS IN UZBEKISTAN: AN ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF RAW MATERIAL SELECTION AND ORNAMENT SYSTEM

Xudaybergenov Hayitboy Satimovich
Urgench State Medical Institute, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the traditions of wood carving in Uzbekistan as an important component of folk applied art. It analyzes the processes of wood selection and preparation according to natural characteristics, as well as traditional techniques of material processing.

Keywords: Wood carving, folk applied art, traditional craftsmanship, wood species, ornamental composition, islimi pattern, zanjira motif, turunj ornament, ethnological analysis, master-apprentice tradition.

Yog‘och o‘ymakorligida ota-bobolarimiz qadimdan xar xil yog‘ochlardan turli maqsadda foydalanib kelganlar. Yog‘ochsoz ustalarning aytishicha, yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan yog‘ochlarni butun yil bo‘yi tayyorlash mumkin. Lekin yog‘ochlarni daraxtlardan suv qochgan vaqtda, ya‘ni oktabr, noyabr oylarida tayyorlash yaxshi natija berishini aytib o‘tadilar. Shuningdek, kesilgan daraxt uzoq saqlanganda chirimasligi va qurt yemasligi uchun uning po‘stlog‘ini shilish va soya hamda shamol tegadigan joyda saqlash lozim. [1]

Ayniqsa, yog'ochlarni ishlatish oldidan e'tibor bilan tanlash va hidlab ko'rish odati mavjud bo'lib, masalan, buralgan, serbutoq yog'ochlarni olmaslik lozim, chunki ulardan yasalgan buyumlar sifatsiz chiqadi. Ustalar yog'ochni o'yishdan oldin uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganib, keyingina yog'och o'yib naqsh ishlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yog'ochlar ular olinadigan daraxt turiga qarab ikki guruhga: ya'ni bargli va nina barglilarga bo'linadi. Nina bargli daraxtlardan olingan yog'ochlar qurilishda, duradgorlikda va yog'och o'ymakorligida asosiy xom-ashyo hisoblanadi, chunki uning o'ziga xos afzalliklari bor. Chunonchi, tarkibida smolali moddalari bo'lganligi uchun u tez chiqib ketmaydi, bargli daraxtlarga qaraganda ko'pligi va yengilligi, unga ishlov berish osonligi, tanasi to'g'ri, silliq xolda tayyorlash mumkin. Bundan tashqari, o'ymakorlikda shumtol, eman, arg'umon, terak, chinor, zirk, archa, yong'oq va boshqa yog'och daraxt yog'ochlari ham ishlatilishini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yog'ochsozlikda xom-ashyo materiallari tabiiy guliga, rangiga, tovlanishiga va hidiga qarab aniqlanadi. O'zbekiston sharoitida, yog'och o'ymakor ustalar o'z ishlari uchun eng yaxshi yong'oq, qayrag'och, chinor, tut, archa, terak, o'rik kabi mahalliy daraxtlarning eng a'lo navlarini ishlatadilar. Xozirgi ustalar esa, boshqa joylardan keltirilgan sham – shod, eman, qarag'ay daraxtlari yog'ochlarini ishlatadilar.

Quyida yog'och o'ymakorligida yog'och turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz.[2]

Jumladan:

Tog' teragi - (ruscha – osina) – bargli daraxt, po'stlog'ining rangi sarig'imtir, yupqaroq, tanasining pastki qismlarida chatnog'i bo'ladi. Yumshoq yog'och turiga kiradi, yengil, oqish rangli namga chidamsiz, yillik xalqalari aniq. Yog'ochini ishlash oson. Undan o'yinchoqlar, idishlar, eshik, faner, gugurt, xar xil buyumlar yasaladi. O'ymakorlikda juda tez chiriganligi uchun kam ishlatiladi.

Oq qarag'ay – (ruscha-pixta)-po'slog'i yupqa, silliq kulrang tusda bo'ladi. U yumshoq, yengil, oson ishlanadi, biroz qoramtir dog'li, yog'ochi oqish bo'ladi. Mayda kuzli, kam smolali, hidi yo'q, namga chidamsiz. Cholg'u asbobolarini yasashda, yog'och yo'makorligida va qurilishda ishlatiladi.

Qarag'ay - (ruscha-sosna) – igna bargli daraxt turiga kiradi. Puxta yengil smolali, oq – qizg'ish yog'och, namga chidamli, po'slog'i qalin va to'q jigarrang tusda buladi. Qarag'ay tik va to'g'ri o'sadi uning balandligi 30 – 40 m. Yoshi 120-150 yil bo'ladi. U yumshoq yog'och bo'lib, uni yorish, arralash, yelimlash, buyash, loklash oson. Qarag'ayning yillik xalqlari aniq ko'rinib o'ziga xos ko'rinishga ega. U qurilishda, kemasozlikda, mebel ishlab chiqarishda, duradgorlikda va yog'och o'ymakorligida ishlatiladi.

Tilog'och – (ruscha-listvenitsa) igna bargli daraxt turiga kiradi, og'ir, qattiq, qoramtir-sarg'ish rangli bo'lib, chiroyli ko'rinishga ega. Namga chidamli, qarag'ayga qaraganda 30 % mustahkamdir. U ortiqcha smolali, po'stlog'i qalin, yillik xalqalari aniq ko'rinib, yog'ochi mayin qatlamlidir. U ortiqcha smolali bo'lgani uchun tez chirimaydi, uni ishlash qiyin. Shuning uchun yog'och o'ymakorligida kam, asosan qurilishda ishlatiladi.

Armug'on – (ruscha- lipa) bargli daraxt turiga kirib, u qalin po'stloqli, yengil, kam yoriluvchan, yog'ochi yumshoq, oqish tusli buladi. Armug'onning yillik xalqalarini aniqlash qiyin. Kam chatnaydi, toblanmaydi, kesish oson, xidsiz bo'lgani uchun yog'och idishlar, bochkalar, sabzi taxtalar, chizmachilik taxtalari ishlatiladi. Yog'och o'ymakorligida armug'onning 80-90 yilligi ishlatiladi.

Pardozlash - yog'och sirtini yaxshilab tozalab silliqlab, o'yma relyefga uch xil pax (yoyma), choka (yorma), lula pardoz berish hamda bo'yab, kumush va tilla suvi yugurtirish loklash, jilolashdir.

Terak – ikki xil bo'ladi, baqaterak va mirzaterak. Baqa- terakning po'stlog'i silliq, rangi oq – ko'kish bo'lib, tanasi uncha to'g'ri bo'lmaydi, yog'ochi oqish tuslidir. Mirzaterakning po'stlog'i sarg'ish silliq, tanasi to'g'ri бўлади. Ёғочни oqish tusda bo'lib, o'ymakorlikda keng

qo'llaniladi. Undan bog'dodi eshiklar tayyorlanadi va panjara to'qiladi.

Oqqayin – po'stlog'i oqish, unchalik qalin emas, yog'ochi qattiq, oqish, yillik xalqalari aniq bilinmaydi. Oqqayin o'ymakorlikda kam ishlatiladi. Undan asosan faner ishlab chiqariladi.

Qoraqayin – sarg'ish – qizg'imtir tovlanadi, tabiiy gulli, yillik xalqalari aniq bilinadi. Mebel sanoatida ko'p ishlatiladi. Qoraqayin yog'och o'ymakorligida juda qulay yog'och xisoblanadi.

Zarang – yog'ochi oqish bo'lib, yaxshi pardozlanadi, yillik xalqalari aniq bilinmaydi. Zarang yog'ochi o'ymakorlikda, qimmatbaxo mebel tayyorlashda ishlatiladi.

Chinor – po'stlog'i ko'kimtir, qalin, silliq. Yog'ochi qizg'ish pushti rangli, tabiiy guli juda chiroylidir. Undan qimmatbaxo mebel tayyorlashda va yog'och o'ymakorligida ko'p foydalaniladi. Chinor Farg'ona vodiysida ko'p tarqalgan, uzoq yashaydi. Jumladan, yoshi 800 yil bo'lib, aylanasi 25 metr, balandligi 32 metrli bo'lgan chinorlar xam bor.

Yong'oq – po'stlog'i kul rang, qalin, chatnoq bo'lib, yog'ochi qizg'ish kul rang tusli, qattiq va og'ir bo'ladi. Undan ishlangan mebel buyumlar g'oyatda qadrlanadi. Yog'och o'ymakorligida esa ko'p ishlatiladi. [3]

O'rik – yog'ochining tusi qoramtir qizg'ish bo'ladi, bundan yasalgan buyum loklangandan keyin ajoyib tovlanadi. Bu daraxt yog'ochidan quticha va chiroyli narsalar yasashda foydalaniladi. O'rik yog'ochidan muzika asboblardan surnay yasalgan.

Naqsh chizish faoliyati asosan naqsh elementlaridan, eng oddiy nusxa ko'chirishdan boshlanadi. O'quvchilar qog'ozda to'g'ri va chiroyli chiziq o'tkazishni o'rganishlari, chizilgan chiziqning aniq va ravonligiga erishishlari kerak.

Yog'ochga mustaqil naqsh ishlash esa dastlab naqshni bo'laklaga ajratib chizishdan boshlanadi. Masalan; barg elementi, gul elementi, bofta shkifti va boshqalar. Yog'och o'ymakorligida keng qo'llaniladigan zanjira, islimi, girix, madoxil, turunj naqshlar yuqoridagi elementlardan hosil bo'ladi.

Zanjira. Uning oddiy naqsh namunalari geometrik va o'simliksimon naqshlarda uchraydi. Geometrik shakllardagi zanjira naqshi 1 a,b,v rasmlarda tasvirlangan elementlarning uzluksiz davom ettirish natijasida hosil bo'ladi. Zanjira guli eni 3sm dan ortiq bo'lmagan karnizlarga ishlatiladi. O'simliksimon zanjira naqshi yarim aylanalardan tashkil topgan bo'lib, yo'l ichiga chiziladi. Ularni ham uzluksiz davom ettirish natijasida o'simliksimon "zanjira" gul hosil bo'ladi.

Bofta. Bu gullari simmetrik naqshlar turiga kirib, tuzilishiga ko'ra uchli, oysimon, siniq chizikli bo'ladi. Bofta gullar naqsh yo'llarini bir – biriga bog'lashda ishlatiladi. Boftalarni aylana shaklida va to'g'ri chiziq ichiga chizish ham mumkin. Bofta qatnashmagan naqshlar ko'rimsiz bo'lib, kishini o'ziga jalb qilmaydi.

Gulli raftori. O'simliksimon naqshlar birmuncha murakkab bo'lib, o'simlik qismlariga o'xshash naqsh elementlaridan tashkil topadi. Xar bir naqshning nomi asosiy naqsh xosil qiluvchi elementdan olinadi. O'simliksimon naqshlar "Islimi gullar" deb ataladi.

Islimi gullar o'z navbatida, ikkitomonga ulanadigan ko'rinishda bo'ladi.[4]

Bargli raftori. Islimi gullar yo'llari va tuzilishiga qarab yak raftori, du raftori, gulli raftori, barg elementlaridan tuzilgan bo'lsa, bargli raftori deb ataladi.

Aylana islimi. Islimi gullar aylanadan tuzilgan bo'lsa "aylana islimi" deb ataladi. 6 va 7 – rasmlarda aylana islimi tasvirlangan bo'lib, ular to'rt tamonga ulanadigan islimi gullardir.

Boftali islimi. Boftali islimilar bofta elementining stillashtirib olingan turlaridan tashkil topadi.

Bargli islimi. Bargli islimilardan tuzilgan naqshlar o'z ichiga oygul elementlaridan qabul qilib, yanada ko'rkam va chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi. Bargli islimi tasvirlangan naqshlarda oygul elementi xam mavjud bo'ladi.

Mexrobli islimi. Mexrobli islimilar bir tamonga, ya'ni yuqori tamonga o'sib boruvchi islimi guldur. 9 – rasmda mexrobli islimi tasvirlangan.[5]

Patnus gul islimi. Patnus gulli islimi chizma naqshining tuzilishiga o'xshash bo'lib,

maxsus chegaralangan buyumlar yuzasiga ko'vachaga o'xshash shaklda chiziladi. Bu naqsh chizg'ich va pargar yordamisiz qo'l bilan chiziladi.[6]

Turunj islimi. Bir xil elementlardan tarkib topgan to'g'ri va egri chiziq bo'ylab ma'lum tartibda takrorlanib turadigan naqshlar "Turunj" islimi deb ataladi.

XULOSA

Qadim zamonlardan beri ota-bobolarimiz insoniyat vujudga keltirgan kashfiyot, ilm-fan cho'qqilarini egallab, uz xunarlarini avloddan-avlodga utkazib kelmokdalar.

Yog'ochga naqsh o'yish va gul solish san'ati hamisha ardoqlanib kelingan. Xozirgi paytda yog'och o'ymakorligi me'morchilik bilan bir qatorda ro'zg'or buyumlariga bezak berishda keng qo'llanilmoqda. Maxalliy an'analarni avaylab, ardoqlab, ularni yangi mavzu bilan boyitayotgan xalq ustalari, asrlar davomida sayqal topgan kadimiy san'atning yetuk namunalarini yaratmokdalar.

Xozirgi kunda arxitektura bilan boqliq bo'lgan ganch va yogoch o'ymakorligi tobora taraqqiy etib bormokda. O'zbekistonda kadimdan me'morchilik va uy-ruzugor buyumlarini bezashda, xalq amaliy san'atining turlaridan biri yog'och o'ymakorligi keng qo'llanib kelingan. Yog'och o'ymakorligida turli naqsh uslublaridan foydalaniladi. Xar bir usta uzi yashab, ijob etgan yerdagi badiiy an'alarining o'ziga xos tamonlarini ijodida aks ettiradi. Qisqacha qilib aytganda, yog'och o'ymakorligi san'ati ota – bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan meroslardan

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dala ma'lumotlari. Xiva shahar. 2024 yil.
2. M. Mirzaaxmedov. S Ergashev. Yog'och O'ymakorligi. Toshkent – O'qituvchi 1995 y.
3. Bulatov. S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent «Mexnat» 1991 y. 232– 236 betlar.
4. Ko'rsatilgan asar. 1995 y.
5. Bulatov. S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent «Mexnat» 1991 y. 226 – 246 betlar.